



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA O‘ZLASHMALARNING QO‘LLANISHI

Sayidov Najmiddin

“Yangi asr” universiteti, magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar va ularning turli so‘z yasaliş modelları asosida hosil bo‘lishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu birliklarning grammatik xususiyatlari, jumladan fe‘llar, sifatlar, ravishlar va boshqa so‘z turkumlari doirasidagi funksional qo‘llanilishi o‘rganiladi. Natijalar arabcha o‘zlashmalar Navoiy tilida muhim stilistik va semantik rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Navoiy, arab tili, so‘z yasalişı, fe‘l, sifat, so‘z turkumlari, o‘zlashma so‘zlar, morfologiya.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗАИМСТВОВАНИЙ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АЛИШЕРА НАВОИ

Саидов Наджмиддин

Университет «Yangi asr», магистрант

Аннотация

В данной статье исследуются заимствованные арабские слова в произведениях Алишера Навои и их образование на основе различных словообразовательных моделей. Анализируются грамматические особенности этих единиц, включая глаголы, прилагательные и другие части речи, а также их функциональная роль в тексте. Результаты показывают, что арабские заимствования играют важную стилистическую и семантическую роль в языке Навои.

Ключевые слова: Навои, арабский язык, словообразование, глагол, прилагательное, части речи, заимствованные слова, морфология.

THE USE OF BORROWINGS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI

Sayidov Najmiddin

Yangi Asr University, Master’s Student

Abstract

This article examines Arabic loanwords in the works of Alisher Navoi and their formation based on different word-formation models. It analyzes the grammatical features of these units, including verbs, adjectives, and other parts of speech, as well as their functional role in the text. The findings show that Arabic borrowings play an important stylistic and semantic role in Navoi’s language.

Keywords: Navoi, Arabic language, word formation, verb, adjective, parts of speech, loanwords, morphology.

Navoiy asarlarini tushunish, ularni to‘g‘ri anglash uchun ko‘proq ma‘lumotga ega bo‘lmog‘imiz lozim va, albatta, sharq tillarini mukammal egallamog‘imiz darkor bo‘ladi. “Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi, sha‘nu sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san‘atkoridir. Ta‘bir joiz bo‘lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so‘zlovchi biron-bir inson yo‘qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e‘tiqod bilan qaramasa” [17, 45], deya ta‘kidlagan edilar Birinchi

Prezidentimiz I. Karimov.

“Yoshlar Navoiyni qanchalik chuqur va puxta bilsa, ma’rifat, ezgulik, komillik sirlarini o’shancha kengroq egallaydi. Navoiyning so’zlari diliga o’rnashgan odam, o’zi istasin-istamasin, odamiylik sharafi va kuch-quvvatini idrok etadi” [19, 5].

Buyuk mutafakkir o’z asarlarida arabcha o’zlashma so’zlardan keng foydalangan bo’lib, ular ko’pincha fe’liy vaznlar (qoliplar) asosida hosil qilingan. Arab tilida ot, sifat va sifatdashlarning so’z yasovchi qoliplari mavjudki, Navoiy asarlarida qo’llanilgan ana shunday so’z yasovchi vaznlarni bilsak, ularning ma’nosini tushunmog’imiz osonroq bo’ladi.

Ot

Ish qurollari va asbob nomlari arab tili grammatikasi qoidalariga ko’ra ko’pincha “mif’al”, “mif’alat”, “mif’ol” vaznlaridan hosil qilinadi. Masalan, aslida “baroda” — egovlamog’ fe’li “mif’al” qolipida aytilsa, “mibrad” — egov so’zi yasaladi yoki “taroqa” — taqillatmog’ fe’li “mif’alat” vaznida aytilsa, “mitraqat” — bolg’a so’zi hosil bo’ladi [15, 256]. Alisher Navoiy g’azallarida ham ana shunday qolipda yasalgan ish qurollari nomlari ishlatilganini kuzatishimiz mumkin.

Mif’ol vaznida:

Partavi misbohi tajallo ham ul [7, 63].

Misradagi **misboh** — **sabaha** (“tongda kelmoq”, “ertalab turmoq”) fe’lidan olingan bo’lib, bu yerda **chiroq** ma’nosini bildiradi.

Mif’al vaznida:

La’ling ul o’tki, ko’ngul mijmar anga [6, 11].

Misradagi **mijmar** — **jammara** fe’lidan olingan bo’lib, yonib turgan ko’mir cho’g’ida qovurish ma’nosini bildiradi. **Mijmar** — manqal, manqaldon, kabob qo’rasi, tutatqi solinadigan idish, isiriqdon kabi ma’nolarni bildiradi.

Mif’ol vaznida:

Yoxud ul oy sham’ini yurutqali minqosh erur [“Navodir ush-shabob”, 120-bet].

Bu misradagi **minqosh** — **naqasha**, ya’ni o’ymakorlik usuli bilan naqsh solmog’ fe’lidan olingan bo’lib, naqqoshning keskichi, kesish (yo’nish) asbobi, haykaltarosh qalami, tosh bolta, tosh pichoq kabi ish qurollari ma’nolarini bildiradi.

Mif’al vaznida:

Bo’ldi chu mistar xatig’a tuz raqam [7, 180].

Ushbu baytdagi **mistar** — **satara** fe’lidan olinib, satr, chiziq chizmog’ ma’nosidan kelib chiqqan bo’lib, baytda **chizg’ich** ma’nosida qo’llangan.

Mif’ol vaznida:

Ki hayratdin hamisha qilib isba’ni misvok [2, 278].

Misvok — **saka (savk)**, ya’ni tozalash, artish fe’lidan olingan. Baytda **tish tozalaydigan asbob** ma’nosida kelgan.

Mif’ol vaznida:

Ikki barmoqki tutar siymni miqroz kibi [2, 237].

Misradagi **miqroz** — **qoroza**, ya’ni kesmog’, o’tkirlamoq, charxlamoq ma’nolarini anglatuvchi fe’ldan olinib, bu yerda **qaychi** ma’nosida kelgan.

Mif’ol vaznida:

Yana qal’a miftohin ul topshurub [11, 177].

Misradagi **miftoh** — **fataha** (“ochmog’”) fe’lidan olingan bo’lib, **kalit** ma’nosini bildiradi.

Mif’ol vaznida:

Yuz tuman mismor birla ustuvor etti firoq [3, 209].

Misradagi **mismor** — **samora**, ya’ni mixlamoq, qoqmog’ fe’lidan olinib, **mix**, **qoziq**, **pona** kabi ma’nolarni ifodalaydi.

Mif’ol vaznida:

Go’yiyo jon rishtasig’a tegdi mizrobi aning [4, 211].

Misradagi **mizrob** — **zaraba** (“urmoq”) fe’lidan olingan bo‘lib, kamoncha, musiqa cholg‘usi kamonchasi, chalg‘i ma’nolarini bildiradi.

Sifat. Arab tilida sifat yigirmadan ortiq vazn (qolip) bo‘yicha hosil qilinadi [14, 280]. Eng ko‘p ishlatiladigan sifat yasovchi vaznlar: **fa’il, fo’il, fa’l, fu’l, fa’al, fa’il, fay’il, fu’ul, fu’lan, fu’la, af’alu, fa’lau.**

Fa’il vaznida:

Dedikim, ey Tengriga joning qarib [12, 14].

Ushbu misradagi **qarib** — **qaruba** fe’lidan olingan bo‘lib, **yaqin bo‘lmoq, yaqinlashmoq** ma’nosini ifodalaydi.

Fo’il vaznida:

Ki do ‘st fe’lingu qavlingg ‘adur Basiru Same’ [6, 161].

Bu misradagi **basir** — **basara** (“ko‘rmoq”) fe’lidan olingan bo‘lib, **ko‘ruvchi, sezgir** ma’nosida; **same’** esa **sami’a** fe’lidan olingan bo‘lib, **eshituvchi** ma’nosini bildiradi.

Fa’l vaznida:

Ne kelsa ollingga, tut sahlkim, jafu ko ‘rar ul [5, 96].

Bu misradagi **sahl** — **sahala** fe’lidan olinib, **yengil** ma’nosini bildiradi.

Fu’l vaznida:

O ‘zi mujid va sulb va yakro ‘y kishidur [13, 116].

Jumladagi **sulb** — **saluba** fe’lidan olinib, **qattiq, pishiq, salobatli** kabi ma’nolarni ifodalaydi.

Fa’al vaznida:

Shohga zebu far jamolidin oning, Azlu favti ham jalolidin oning [12, 176].

Baytdagi **jamol** — **jamula** fe’lidan olingan bo‘lib, **go‘zallik, go‘zal bo‘lmoqni; jalol** esa **jalla** fe’lidan olinib, **ulug‘, buyuk, qudratli** ma’nolarini ifodalaydi.

Fa’il vaznida:

Qaysi johilg ‘a nadomat bo ‘lg ‘ay ul olimchakim [3, 391].

Misradagi **johil** — **jahula** fe’lidan olinib, **nodon, bilimsiz** ma’nolarini bildiradi.

Rang

Rangni ifodalovchi vaznlar **af’alu** (muzakkar) va **fa’lau** (muannas) vaznlaridan hosil bo‘ladi.

Af’alu vaznida:

Qoni asfar mayki, bor har qatrasi bir kahrabo [1, 47].

Misradagi **asfar** — **sariq** rangni ifodalaydi.

Fa’lau vaznida:

Derki, safro kasratidin bo ‘lmish og ‘zim ta ‘mi talx.

Misradagi **safro** — **sariq** rangni bildiradi.

Fa’lau vaznida:

Yo sanga maydin erur gul kibi hamro oraz [2, 239].

Misradagi **hamro** — **qizil** rangni bildiradi.

Turfaroqkim, qondin ochmish yuz guli ahmar yara [5, 22].

Misradagi **ahmar** — **qizil** rangni ifodalaydi.

Af’alu vaznida:

Gul ahmar, savsan azraq bu chaman ichra bo ‘lub andin [2, 78].

Misradagi **azraq** — **ko‘k** rangni bildiradi.

Af’alu vaznida:

Ham taxtig ‘a poya charxi ahzar yanglig ‘ [3, 9].

Misradagi **ahzar** — **yashil** rangni ifodalaydi.

Fa’lau vaznida:

Dimog ‘im ichra har bir tuxmi yanglig ‘ donai savdo [5, 21].

Misradagi **savdo** — **qora** rangni bildiradi.

Sifatdosh

Sifatdosh yasovchi vaznlar quyidagicha: I bobda **foʻil** — aniq, **mafʻul** — majhul; II bobda **mufaʻʻil** — aniq, **mufaʻʻal** — majhul; III bobda **mufoʻil** — aniq, **mufoʻal** — majhul; IV bobda **mufʻil** — aniq, **mufʻal** — majhul; V bobda **mutafaʻʻil** — aniq, **mutafaʻʻal** — majhul; VI bobda **mutafoʻil** — aniq, **mutafaʻʻal** — majhul; VII bobda **munfaʻʻil** — aniq, **munfaʻʻal** — majhul; VIII bobda **muftaʻʻil** — aniq, **muftaʻʻal** — majhul; IX bobda **mufʻill** — aniq, **mufʻall** — majhul; X bobda **mustafʻil** — aniq, **mustafʻal** — majhul kabi vaznlar mavjud.

I bob feʻlining aniq daraja sifatdoshi **foʻil** shaklida yasaladi va oʻzbek tiliga “-gan”, “-yotgan”, “-kan”, “-qan” sifatdosh qoʻshimchalari bilan yoki “-chi” otlashgan qoʻshimchasi bilan tarjima qilinadi hamda hozirgi zamoni anglatadi.

I bob, foʻil vaznida:

voris — meros oluvchi, **vosil** — yetuvchi, **sohib** — suhbat qiluvchi, **notiq** — soʻzlovchi, **oshiq** — sevuvchi, **zohid** — ibodat qiluvchi kabi.
Masalan: *Ne boʻlgʻay koʻrub piri koshif meni* [11, 491].
Misradagi **koshif** — **ochuvchi, kashf qiluvchi** maʼnolarini ifodalaydi.

I bob feʻlining majhul daraja sifatdoshi esa **mafʻul** shaklida hosil qilinadi va feʻl ifodalagan ish-harakat obyekti boʻlgan predmetni yoki oʻsha ish-harakat natijasida hosil boʻlgan holatni bildiradi [18, 147].

I bob, mafʻul vaznida:

malul — malollangan, **maʻlum** — bilingan, **mamnun** — minnatdor, **mamnuʻ** — man etilgan, **manzum** — tuzilgan, **manshur** — yoyilgan, **manqul** — aytilgan kabi.

Masalan:

*Zalolat koʻyining mahzunlarigʻa,
Jaholat dashtining majnunlarigʻa* [1, 7].

Baytdagi **mahzun** — hafa boʻlgan, **majnun** — aqldan ozgan maʼnolarini bildiradi.

II bob, mufaʻʻil vaznida:

muragʻgʻib — ragʻbatlantiruvchi, **muassir** — taʻsir etuvchi, **mufattin** — sehrlovchi kabi.

Masalan:

Ey musulmonlar, ne kofir koʻz, mufattin qosh erur [3, 11].

Misradagi **mufattin** — **sehrlovchi, fitnalovchi, goʻzal** maʼnolarini ifodalaydi.

II bob, mufaʻʻal vaznida:

muravvaq — tiniq, musaffo; **muravvah** — salqin, bohavo; **murakkab** — tartiblangan; **mulaqqab** — laqablangan; **muraffah** — osuda, orom kabi.

Masalan:

Kelur ul sarvkim gullar mulavvan qildi gulshanni [3, 116].

Misradagi **mulavvan** — **rang-barang** maʼnosini bildiradi.

III bob, mufoʻil vaznida:

muboriz — polvon, yakka kurashuvchi; **mujodil** — tortishuvchi; **musoid** — yordam beruvchi; **musohib** — suhbatdosh kabi.

Masalan:

Ki, loʻbatlaring-oʻq sanga bas musohib [5, 34].

Misradagi **musohib** — **suhbatdosh** maʼnosini bildiradi.

III bob, mufoʻal vaznida:

muotab — taʻqib qilingan; **mushorak** — sherik boʻlgan; **muroqab** — kuzatuvchi kabi.

Masalan: “*Shayx Imron turmadi va dediki, muotab kishidurmen*” [16, 104].

IV bob, mufʻil vaznida:

mufliis — kambagʻal; **mufid** — foydali; **mufsid** — zararli; **muxbir** — xabar beruvchi; **muʻjiz** — ojizlantiruvchi kabi.

Masalan:

Mufliis boʻlmoq tarab zavoli boʻlgʻay [15, 131].

Bu misradagi **mufflis** — **kambag'al, nochor** ma'nolarini ifodalaydi.

IV bob, muf'al vaznida:

mulmaq — jiplashgan; **mulzam** — sukut qilgan; **muzmar** — yashiringan; **mudrak** — idrok qilingan; **mubham** — yashirin, noaniq kabi.

Masalan: "*bu mujmal mazkur bo'lg'on fazoyildinki, tafsili...*" [16, 71].

Jumladagi **mujmal** — **qisqacha izoh, umumiy izoh** ma'nolarini ifodalaydi.

V bob, mutafa'il vaznida:

mutaazzir — qiyin, uzrli, mushkul; **mutaayin** — tayinli, aniq; **mutaaxxir** — keyingi, kechikkan kabi.

Masalan:

"*Sipohiyliqdin mutanaffir ermişlar*" [15, 71].

Baytdagi **mutanaffir** — **nafratlanuvchi, jirkanuvchi, bezor** ma'nolarini bildiradi.

V bob, mutafa'al vaznida:

mutabarrak — tabarruk; **mutasavvar** — tasavvur qilingan; **mutaqaddam** — oldingi; **mutavajjah** — yuzlangan; **mutamakkan** — joylashgan kabi.

Masalan:

Xayolidur mutazarrar ko'ngulda ohimdin [6, 199].

Misradagi **mutazarrar** — **zarar ko'rgan, zararli** ma'nolarini bildiradi.

Yana: "*...navkar va mutaallaqlar ulufasig'a va cherik yarog'ig'a sarf qildim*" [14, 196].

Jumladagi **mutaallaq** — **taalluqli, tegishli, dahldor, oid** ma'nolarini bildiradi.

VI bob, mutafa'il vaznida:

mutaalliq — taalluqli; **muaammil** — o'ylovchi kabi.

Masalan:

*O'pmak izingni yo'q haddim, ammo xayol ila
La'lingni yolqitur mutaoqib muchaklarim* [5, 253].

Baytdagi **mutaoqib** — **ketma-ket, orqama-orqa, birin-ketin** ma'nolarini ifodalaydi.

VII bob, munfa'il vaznida:

muntashir — yoyilgan; **munqati'** — kesilgan kabi.

Masalan:

Qaddidin sarv munfail erdi [10, 252].

Misradagi **munfail** — **ta'sirlangan, hayajonlangan, uyalgan** kabi ma'nolarni beradi.

VII bob, munfa'al vaznida:

Bir kishini ofarinish daftaridin muntaxab [14, 6].

Misradagi **muntaxab** — **tanlangan, saralangan** ma'nolarini beradi.

VIII bob, mufta'il vaznida:

muntazir — kutuvchi; **muntazim** — tartiblangan; **munqasim** — taqsimlangan kabi.

Masalan:

*Xoni latoyifqa so'zi munqasim,
Durri maoniyg'a tili muntazim* [6, 68].

Baytdagi **munqasim** — **taqsimlangan, muntazim** esa **nazm qilingan** ma'nosini bildiradi.

IX bob, muf'ill vaznida:

muqirr — iqror bo'lgan; **muhiq** — haqli, munosib, loyiq kabi.

Masalan:

Furqat ahlig'a tong ermas bo'lsa ash'ori muriqq [6, 199].

Misradagi **muriqq** — **yumshatuvchi, erituvchi** kabi ma'nolarni bildiradi.

IX bob, muf'all vaznida:

mushtaqq — boshqa so'zdan olingan; **murtadd** — qaytgan; **musinn** — keksa, Yoshi ulug' kabi.

Masalan:

Juzv-juzvimni, fig'onkim, munfakk etti tiyg'i hajr [1, 31].

Misradagi **munfakk** — **ajratilgan, ayrim-ayrim qilingan** ma'nolarini bildiradi.

X bob, mustaf'il vaznida:

mustahiq — haq bo'lgan kabi.

Masalan: *Har nechakim, mustahiq o'lsun aziz* [8, 8].

X bob, mustaf'al vaznida:

mustag'raq — g'arq bo'lgan; **mustahsan** — yaxshi deb topilgan kabi. Masalan:

Kimsaga bu za'fi mustahsan emas [12, 135].

“**Muf'all**” va “**muf'ill**” vaznlari arab tilida ikkilangan undoshli fe'llar turiga kiradi.

Alisher Navoiy asarlarini joriy yozuvga o'girilgan to'plamlarda bunday so'zlarning bitta undoshi so'z oxirida kelgani uchun tushirib qoldirilgan. Chunki hozirgi o'zbek tilida bunday so'z shakllari mavjud emas.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Navoiy o'z asarlarida turkiy til bilan birga arabcha so'z turkumlaridan ham foydalangan. Ular turli lug'aviy-ma'naviy va uslubiy-semantik funksiyalarni bajargan, asar ta'sirchanligini, musiqiylikini va badiiyatini yuksak darajaga ko'targan. Alisher Navoiy asarlaridagi arabcha so'z turkumlarini o'rganish va tushunishimiz, so'z yasovchi vaznlarni bilishimiz shoir asarlarini yanada chuqurroq anglashimizda ko'makchi vazifasini o'taydi, deb hisoblaymiz. Yoshlarning Navoiy asarlarini yetarli darajada bilishlari esa ularning ma'naviy yetuk bo'lishlari uchun muhim omillardan biri, desak, adashmagan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami: 20 jildlik. 1-jild: *Badoyi' ul-bidoya*. – T.: Fan, 1983. – B. 31.
2. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami: 20 jildlik. 2-jild: *Navodir un-nihoya*. – T., 1987.
3. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami: 20 jildlik. 3-jild: *Xazoyin ul-maoniy. G'aroyib us-sig'ar*. – T.: Fan, 1988.
4. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami: 20 jildlik. 4-jild: *Xazoyin ul-maoniy. Navodir ush-shabob*. – T.: Fan, 1989. – B. 211.
5. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami: 20 jildlik. 5-jild: *Xazoyin ul-maoniy. Badoe' ul-vasat*. – T.: Fan, 1988. – B. 253.
6. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami: 20 jildlik. 6-jild: *Xazoyin ul-maoniy. Favoyid ul-kibar*. – T.: Fan, 1990. – B. 199.
7. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami: 20 jildlik. 7-jild: *Xamsa. Hayrat ul-abror*. – T.: Fan, 1991. – B. 5–7.
8. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami: *Farhod va Shirin*. – T.: Fan, 1992.
9. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami: 20 jildlik. 9-jild: *Xamsa. Layli va Majnun*. – T.: Fan, 1992.
10. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami: 20 jildlik. 10-jild: *Xamsa. Sab'ai sayyor*. – T.: Fan, 1992. – B. 252.
11. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami: 20 jildlik. 11-jild: *Xamsa. Saddi Iskandariy*. – T.: Fan, 1993.
12. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami: 20 jildlik. 12-jild: *Lison ut-tayr*. – T.: Fan, 1996. – B. 135.
13. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami: 20 jildlik. 13-jild: *Majolis un-nafois*. – T.: Fan, 1997.
14. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami: 20 jildlik. 14-jild: *Mahbub ul-qulub. Munshaot. Vaqfiya*. – T.: Fan, 1998. – B. 6.
15. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami: 20 jildlik. 15-jild: *Xamsat ul-mutahayyirin. Holoti Sayyid Hasan Ardasher. Holoti Pahlavon Muhammad. Nazm ul-javohir*. – T.: Fan, 1999.
16. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami: *Nasoyim ul-muhabbat*. – T.: Fan, 1992.
17. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008. – B. 45.
18. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. 1-jild. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997. – B. 147.
19. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. – T.: Fan, 2007. – B. 5.
20. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. – T.: Nihol, 2016.